

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHIKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



"TASDIQLAYMAN"

TDSHU rektori

G.Sh.Rixsiyeva

07 07 2026-y.

**2026/2027-o'quv yili uchun ikkinchi va undan keyingi oliy ta'lim
olish boyicha kirish sinovi
DASTURI**

Toshkent- 2026

Ushbu dastur O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-sentabrda 606-son qarori I-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limni olish tartibi to'g'risida"gi NIZOMga asosan ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:

S.M.Bo'ronov – PhD, dotsent. Xalqaro munosabatlar kafedrasini mudiri

M.X.Vohidova – PhD, dotsent. Tashqi iqtisodiy faoliyat kafedrasini mudiri

Taqrizchi:

S.A.Jo'rayev – s.f.d., Xalqaro munosabatlar kafedrasini professori

Dastur Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2026-yil "01" iyul daqi "11"-sonli majlisida muhokama qilingan va tasdiqlangan.

KIRISH

Mazkur dastur bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida ikkinchi va undan keyingi oliy ta'lim olish bo'yicha ariza topshirgan abituriyentlar uchun o'tkaziladigan kirish sinovlari uchun ishlab chiqilgan.

Universitet bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining barchasida kirish sinovlari suhbat shaklida o'tkaziladi. Suhbatdan savollar ikki blokdan iborat qilib belgilanadi va 100 ballik baholash mezonlari qo'llanadi:

1-blok. Mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning mohiyati va ahamiyati. Umimiy 50 ball. Ikki savoldan iborat.

1.1. Savol – 25 ball;

1.2. Savol – 25 ball;

2. Ikkinchi va undan keying oliy ta'lim olish uchun belgilangan bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashdan asosiy maqsad. Umimiy 50 ball.

1-blok. Mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning mohiyati va ahamiyati

1. “Islohot” va “modernizatsiya” tushunchalarini O'zbekiston tajribasi misolida qanday farqlash mumkin?

2. O'zbekistonda islohotlar jarayonida modernizasion va innovasion yondashuvlar qay tarzda uyg'unlashmoqda?

3. “Yangi O'zbekiston” konsepsiyasi islohotlarning nazariy va metodologik asosi sifatida qanday ahamiyatga ega?

4. Islohotlar jarayonida “tartibli liberallashtirish” nazariyasining qo'llanilishi qanday ifodalanmoqda?

5. O'zbekiston islohotlarini global modernizatsiya nazariyalari (Inglhart, Xantington, Rastou) bilan qanday taqqoslash mumkin?

6. Siyosiy islohotlar jarayonida “kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati” tamoyili qanday amalga oshirilmoqda?

7. Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgarishlar islohotlar mohiyatini qanday ifoda etmoqda?

8. Davlat boshqaruvini markazlashuvdan chiqarish jarayonida mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari roli qanday o'zgarimoqda?

9. Siyosiy islohotlarning samaradorligida siyosiy plyuralizm va partiyaviy raqobatning ahamiyati nimada?

10. Siyosiy tizimda demokratik institutlarni mustahkamlash jarayonida qaysi institutsional to'siqlar mavjud?

11. Iqtisodiy islohotlar jarayonida davlatning “iqtisoddagi ishtirokchi” sifatidagi roli qanday o'zgarimoqda?

12. Xususiy sektorni rivojlantirish jarayonida institutsional islohotlarning samaradorligi qanday baholanmoqda?

13. Soliq islohotlari iqtisodiyotning shaffoflik va raqobatbardoshligiga qanday ta'sir ko'rsatmoqda?

14. Bank tizimini liberallashtirishda tashqi moliya institutlari (JB, XVJ)ning roli qanday?

15. O'zbekiston iqtisodiyotida raqamli texnologiyalarni joriy etishning islohotlar jarayonidagi o'mi qanday ahamiyatga ega?

16. Iqtisodiy islohotlar natijasida mamlakatda "inklyuziv rivojlanish" qay darajada ta'minlanmoqda?

17. Davlat korxonalarini xususiy lashtirish jarayonida ijtimoiy barqarorlikni saqlash muammosi qanday hal etilmoqda?

18. O'zbekiston islohotlari global iqtisodiy integratsiya jarayonlari bilan qanday uyg'unlikda rivojlanmoqda?

19. Qishloq xo'jaligida yer islohotlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati nimada?

20. "Yashil iqtisodiyot" tamoyillari iqtisodiy islohotlarda qanday aks etmoqda?

21. Ta'lim sohasidagi islohotlar mamlakatning inson kapitali rivojiga qanday ta'sir ko'rsatmoqda?

22. Sog'liqni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning uzoq muddatli strategik ahamiyati nimada?

23. Ijtimoiy himoya tizimida "manzilli yordam" tamoyili qanday amalga oshirilmoqda?

24. Xotin-qizlar siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirishda amalga oshirilayotgan islohotlarning institusional mexanizmlari qanday?

25. Yoshlar siyosati doirasidagi islohotlar demografik barqarorlikka qanday ta'sir ko'rsatmoqda?

26. Ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillari bilan qanday uyg'unlashmoqda?

27. Kam ta'minlangan aholini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining barqarorligi qanday ta'minlanmoqda?

28. Ijtimoiy islohotlarda davlat va nodavlat sektori hamkorligining samaradorligi qay darajada?

29. Migratsiya jarayonlari ijtimoiy islohotlar samarasiga qanday ta'sir ko'rsatmoqda?

30. Ijtimoiy sohada amalga oshirilgan islohotlar aholining turmush sifati ko'rsatkichlariga qay darajada ta'sir etdi?

31. Sud-huquq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar inson huquqlari bilan qanday uyg'unlikda?

32. Sud mustaqilligi va adolatli sudlov tamoyili islohotlar jarayonida qanday amalga oshirilmoqda?

33. Jinoyat qonunchiligini liberallashtirishning siyosiy-huquqiy ahamiyati nimada?

34. Xuquqiy madaniyat va huquqiy ongni oshirish islohotlarning samaradorligiga qanday ta'sir ko'rsatmoqda?

35. Advokatura va notariat institutida amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyat uchun qanday ahamiyat kasb etmoqda?

36. Milliy merosni tiklash va uni global miqyosda targ'ib qilish islohotlar jarayonida qanday ahamiyatga ega?

37. Ma'naviy islohotlar jamiyatda milliy o'zlik va identichlikni qanday mustahkamlamoqda?

38. Madaniy diplomatiya orqali amalga oshirilayotgan islohotlarning xalqaro ahamiyati nimada?

39. Ma'naviy-ma'rifiy sohadagi islohotlar milliy g'oya va mafkurani shakllantirishga qanday ta'sir ko'rsatmoqda?

40. Jamiyatda ma'naviy yangilanish jarayoni islohotlarning uzoq muddatli samarasi sifatida qanday baholanadi?

41. Islohotlarning O'zbekiston tashqi siyosatida "pragmatizm" tamoyili bilan uyg'unligi qanday?

42. Islohotlar jarayoni O'zbekistonning xalqaro maydondagi imijiga qanday ta'sir etmoqda?

43. Iqtisodiy islohotlarning mintaqaviy hamkorlik va integratsiya jarayonlaridagi ahamiyati nimada?

44. Inson huquqlari sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda qanday samara bermoqda?

45. O'zbekiston islohotlari Markaziy Osiyo geosiyosiy makonida barqarorlik va hamkorlikka qanday hissa qo'shmoqda?

46. Islohotlar jarayoni "Yangi O'zbekiston — taraqqiyot strategiyasi"ning strategik maqsadlari bilan qanday uyg'unlashmoqda?

47. Amalga oshirilayotgan islohotlarning BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga qo'shgan hissasi qanday baholanadi?

48. Islohotlar natijasida mamlakatda ijtimoiy ishonch va siyosiy faollik qay tarzda kuchaymoqda?

49. Keng qamrovli islohotlarning samaradorligini baholashda qaysi indikatorlar asosiy hisoblanadi?

50. Kelgusida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan ustuvor islohot yo'nalishlari sifatida qaysi sohalarni ko'rsatish mumkin?

2-blok. Ikkinchi va undan keying oliy ta'lim olish uchun belgilangan bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashdan asosiy maqsad

Kirish sinovlarida abituriyentlar bilimini baholash mezonlari BAHOLASH SHKALASI (25 va 50 ballik savollar):

1. Fikr aniq va izchil ifodalangan, barcha savollar mutlaqo to'liq yoritilgan va bunda tegishli ilmiy adabiyotlarga tayanilgan va har tomonlama chuqur asoslangan javoblarga **21.5-25 ballgacha // 43-50 ballgacha - a'lo** baho qo'yiladi.

2. Savolga nisbatan to'liq javob berilgan, fikr izchil ifodalangan, lekin bunda tegishli ilmiy va uslubiy adabiyotlarga kamroq e'tibor berilgan bo'lsa. **17.6-21.4 ballgacha // 35.1-42.9 ballgacha yaxshi** baho qo'yiladi.

3. Savolga qisman javob bera olgan va ma'lum darajada ilmiy, o'quv-uslubiy adabiyotlaridan foydalangan bo'lsa, **14-17.5 ballgacha // 28-35 ballgacha-**

qoniqarli baho qo'yiladi.

4. Fikr aniq ifoda etilmagan, savolga qisman bo'lsada to'g'ri javob berilmagan, tegishli ilmiy, o'quv-uslubiy adabiyotlardan mutlaqo foydalanilmagan javoblar uchun **0-13.9 ballgacha // 0-27.9 ballgacha - qoniqarsiz** baho qo'yiladi.

Suhbat natijalari bo'yicha sinov yakunida yig'ilgan ballar jamlanadi va quyidagicha baholanadi:

1. 90-100 ballgacha – “a’lo”;
2. 70-89 ballgacha – “yaxshi”;
3. 60-69 ballgacha – “qoniqarli”;
4. 0-59 ballgacha – “qoniqarsiz”

ESLATMA: Saralash bali foiz hisobida 60 balldan kam bo'lmasligi lozim. Ikkinchi va undan keying oliy ta'lim olishga da'vogarlar saralash balidan yuqori ball to'plaganlar orasidan yuqoridan pastga ketma-ketlik asosida tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2023
2. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. - Toshkent: O'zbekiston, 2024.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2023
4. Mirziyoyev Sh.M. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlar uchun. –Toshkent: O'zbekiston, 2022.
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. /Sh.M.Mirziyoyev. – T.: O'zbekiston, 2021. – 184 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. /Sh.M.Mirziyoyev. – T.: O'zbekiston, 2021. – 458 b. Ildirov U.Yu. Politologiya: o'quv qo'llanma. – T.: TDSHI, 2013. –154 b.
7. Salimov O. Yangi O'zbekiston davlati. – T.: Ma'naviyat, 2023. -240 b.
8. Jalilov A. Yevroosiyo stragetik muvozanati: Monografiya. –T., 2021.
9. Karimova V.A., Zaynutdinova M.B., Nazirova E.Sh., Sadikova Sh.Sh. Tizimli tahlil asoslari. Toshkent. – “Sharq”. 2014.
10. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: Iqtisod-Moliya, 2014. – 480 b.
11. Xodiyev B.Y., Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: Barkamol fayz-media, 2017. – 783 b.
12. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot satrategiyasi va jamiyatning ma'naviy asoslari. O'quv-uslubiy majmua // <https://lib.bimm.uz/items/download/11413>

Internet saytlari:

13. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi xukumat portalı.
14. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
15. www.tradingeconomics.com – ekonomicheskıe pokazateli
16. www.mid.uz
17. www.pv.uz
18. www.centrasia.uz
19. <http://www.ziynet.uz>.
20. <http://www.gov.uz/>.
21. <http://www.jahon.uz>
22. <http://www.press-service.uz/>.
23. www.ziynet.uz.

Long